

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH
VAZIRLIGI MARKAZIY APPARATDA MAVJUD BO‘SH ISH
O‘RINLARIGA TANLOV E‘LON QILADI

UMUMIY TALABLAR

1. Iqtisodiyot, moliya, soliq, shuningdek bank ishi yo‘nalishlarida oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi (xorijiy va xalqaro oliy o‘quv yurtlarida tahsil olgan nomzodlarga afzallik beriladi).
2. O‘zbek tilini mukammal, rus va ingliz tillarini yuqori darajada bilgan (bo‘sh ish o‘rni xizmat vazifalaridan kelib chiqadi), IELTS sertifikatiga ega bo‘lgan (kamida 6 ball) nomzodlar ijobiy baholanadi.
3. Kompyuter savodxonligi, jumladan Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarini mukammal bilish.
4. Halollik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik va o‘z vazifasiga mas‘uliyat bilan yondashish.
5. Professional etiket, atrofda qilargalarga, shuningdek hamkasblarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, jamoa bilan ishlash qobiliyatiga ega bo‘lishi.
6. Muomala madaniyati, o‘z fikri va mulohazalarini ifodalay olishi, shuningdek, muzokara olib borish qobiliyatiga ega bo‘lish.
7. Muammolar yechimi bo‘yicha tezkor fikrlash va o‘z takliflarini taqdim qila olish.
8. Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlardan xabardor bo‘lishi va ular bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mohiyatini chuqur anglay olish.

TANLOVDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI VA TARTIBI

1-bosqich: Yuqoridagi talablarga javob beradigan nomzod **aruziqulova@mineconomy.uz** elektron manziliga o‘zbek va ingliz tillaridagi ma‘lumotnomasini (Ilovaga muvofiq word shaklida) hamda nima uchun aynan shu lavozimda ishlash istagi borligi to‘g‘risida insho (esse)ni o‘zi mukammal bilgan xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va hokazo) va o‘zbek tillarida (kamida ikki varaqda Times New Roman 13-shriftida) yozib, joriy yilning **25 dekabr**ga qadar yuborishi kerak. Bunda, insho (esse)ni xorijiy tilda yozish faqat xorijiy tillarni mukammal biladigan nomzodlardan so‘raladi.

2-bosqich: **10 (o‘n)** ish kuni ichida ishchi guruhi tomonidan nomzodlarning ma‘lumotnomalari va insholar o‘rganib chiqiladi. Qo‘yilgan talablarga javob bergan va keyingi bosqichga o‘tgan nomzodlar bilan onlayn suhbat o‘tkazish kuni to‘g‘risida vazirlikning **www.mineconomy.uz** rasmiy veb-saytida e‘lon beriladi.

3-bosqich: Onlayn suhbat o‘tkazilgan kundan boshlab **20 (yigirma)** ish kuni ichida tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar to‘g‘risida rasmiy veb-sayt orqali ma‘lumot beriladi.

DIQQAT!!!

**QUYIDAGI HOLLARDA NOMZODLARNING ANKETALARI KO'RIB
CHIQLIMAYDI:**

- **NOMZODLAR ILOVAGA MUVOFIQ MA'LUMOTNOMA BILAN INSHO
(ESSE)NI TAQDIM ETMAGAN HOLLARDA;**

- **INSHO (ESSE)LARIDA AYNAN QAYSI DEPARTAMENT, QAYSI
BOSHQARMA VA BO'LIMDA HAMDA LAVOZIMDA ISHLASH UCHUN TANLOVDA
ISHTIROK ETISHLARI KO'RSATILMAGAN TAQDIRDA;**

- **BOG'LANISH UCHUN TELEFON RAQAMI HAMDA ELEKTRON
MANZILLARI ANIQ KO'RSATILMAGANDA.**

**Ishchi guruh tomonidan tanlov va tanlov natijalari haqidagi barcha ma'lumotlar
faqat vazirlikning www.mineconomy.uz rasmiy veb-sayti orqali nomzodlarga yetkaziladi.**

*Ishchi guruh bilan bog'lanish uchun (+99871)232-64-29, (+99871) 232-65-40 telefon
raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin.*

МАЪЛУМОТНОМА (14-шриффт)

3x4 рангли
фотосурат

Ботир Баҳодирович Эшматов (14-шриффт)

2012 йил 20 февралдан

**Суд департаменти Сирдарё вилоят ҳудудий бошқармаси
суд қарорларини ижро этиш бўлимнинг етакчи инспектори** (11-шриффт)

Туғилган йили:
20.08.1985 (11-шриффт)

Туғилган жойи:
Сирдарё вилояти
Гулистон шаҳри
(11-шриффт)

Миллати:
ўзбек (11-шриффт)

Партиявийлиги:
йўқ (11-шриффт)

Маълумоти:
олий (11-шриффт)

Тамомлаган:
2006 й. Тошкент давлат иқтисодиёт университети
(бакалавр) (11-шриффт)

Маълумоти бўйича мутахассислиги:
(11-шриффт)

иқтисодчи
(11-шриффт)

Илмий даражаси:
йўқ (11 шриффт)

Илмий унвони:
йўқ
(11-шриффт)

Қайси чет тилларини билади (тўлиқ кўрсатилиши лозим):
рус, инглиз тилларини (11-шриффт)

Давлат мукофотлари билан тақдирланганми (қанақа):
Йўқ (11-шриффт)

**Халқ депутатлари республика, вилоят, шаҳар ва туман Кенгаши депутатими
ёки бошқа сайланадиган органларнинг аъзосими (тўлиқ кўрсатилиши лозим):**
йўқ (11-шриффт)

МЕҲНАТ ФАОЛИЯТИ (14-шриффт)

- 2002-2006 йй. - Самарқанд Давлат университети талабаси (11-шриффт)
- 2006-2008 йй. - Сирдарё вилояти Гулистон туман суд ижрочилари бўлинмасининг суд ижрочиси (11-шриффт)
- 2008-2010 йй. - Сирдарё вилояти Боёвут туман суд ижрочилари бўлимнинг катта суд ижрочиси (11-шриффт)
- 2010-2012 йй. - Суд департаменти Сирдарё вилоят ҳудудий бошқармаси суд қарорларини ижро этиш бўлимнинг инспектори (11-шриффт)
- 2012 й.-ҳ.в. - Суд департаменти Сирдарё вилоят ҳудудий бошқармаси суд қарорларини ижро этиш бўлимнинг етакчи инспектори (11-шриффт)

**BO‘SH ISH O‘RINLARI HAMDA ULARGA QO‘YILADIGAN
MINIMAL TALABLAR**

**DAVLAT INVESTITSIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH VA
TAHLIL QILISH DEPARTAMENTI**

Davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va tahlil qilish boshqarmasi

Bosh mutaxassis vakant lavozimiga

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

1. Iqtisodiy bakalavr yoki magistr diplomiga ega bo‘lish.
2. Sohada kamida 5 yil ish tajribasiga ega bo‘lish.
3. Investitsion loyihalarni tahlil va ekspertiza qilish bo‘yicha tajriba mavjudligi.
4. Kompyuter dasturlarida ishlay olish qobiliyati.
5. Kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lish.
6. Jamoada ishlash qobiliyatiga ega bo‘lish.
7. O‘zbek tilini mukammal, rus va ingliz tillarini yuqori darajada bilgan IELTS sertifikatiga ega bo‘lgan (kamida 6,0 ball) nomzodlar ijobiy baholanadi.

Vazifalar:

1. Umumiy iqtisodiy bilimga ega bo‘lish.
2. Investitsiya sohasini chuqur bilish.
3. Soha bo‘yicha yuridik va qonun hujjatlarini tahlil qila olish.
4. Elektron hujjatlar aylanish tizimlariga tegishli topshiriqlarning bajarilish holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar kiritilishini nazorat qilish.
5. Boshqarma vakolatiga taalluqli masalalar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga javob berish.
6. Investitsion loyihalarni tahlil va ekspertiza qilish bo‘yicha tajriba mavjudligi.
7. Boshqarma ish faoliyatiga oid Hukumat qarorlarini va boshqa me‘yoriy hujjatlarni o‘rganib borish va doimiy ravishda o‘z malakasini oshirib borish.
8. Hisobot va ma‘lumotlar belgilangan muddatlarda sifatli taqdim etib borilishini ta‘minlash.

MAKROIQTISODIY SIYOSAT, TAHLIL VA PROGNOZLASHTIRISH DEPARTAMENTI

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish va prognozlash boshqarmasi

Bosh mutaxassis vakant lavozimiga

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

1. Iqtisodiyot, xalqaro iqtisodiy faoliyat, ekonometrika yo'nalishida bakalavr yoki magistr diplomiga ega bo'lish.
2. Tegishli soha bo'yicha kamida 2 yillik ish stajiga ega bo'lish (staji 2 yildan kam yoki bo'lmagan holatlarda, boshqa talablarni to'la bajargan hodim 1 pog'ona past lavozimga olinishi mumkin).
3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hamda tashqi iqtisodiy faoliyat yo'nalishidagi ma'lumotlarni bazaviy tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lish.
4. Kompyuter dasturlarida ishlay olish qobiliyati.
5. Kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish.
6. Jamoada ishlash qobiliyatiga ega bo'lish.
7. O'zbek tilini mukammal, rus va ingliz tillarini yuqori darajada bilgan IELTS sertifikatiga ega bo'lgan (kamida 6,0 ball) nomzodlar ijobiy baholanadi.

Vazifalar:

1. Makroiqtisodiy parametrlar va to'lov balansi bilan uyg'unlashgan holda tashqi savdoni rivojlantirish prognoz parametrlarini, xususan tovar (ish, xizmat)lar importi ko'rsatkichlarini va eksport prognozini ishlab chiqishda ishtirok etish.
2. Hukumat tomonidan tasdiqlangan dasturlar asosida o'rta va yaqin muddatlarga mo'ljallangan tovarlarning asosiy guruhlarini bo'yicha tashqi savdo prognozini shakllantirishda ishtirok etish.
3. Eksport tarkibi va hajmining chuqur tahlili asosida O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish bo'yicha amaliy choralar ishlab chiqishda, eksport mahsulotlari turlarini kengaytirish va hajmlarini oshirish zaxiralarni o'rganib chiqish va takliflar berish.
4. Boshqarmaga tegishli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yangilab borish.
5. Hisobot va ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda sifatli taqdim etib borilishini ta'minlash.
6. Boshqarma ish faoliyatiga oid Hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'rganib borish va doimiy ravishda o'z malakasini oshirib borish.